

PRESS-RELIZ

“IQTIDOR” MAKTAB ANSAMBLI RESPUBLIKA TANLOVI HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-sonli “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash, o‘quvchilar o‘rtasida teatr va san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish hamda yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Iqtidor” maktab ansambli Respublika tanlovi tashkil etilmoqda.

Mazkur tanlovni o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 10-fevraldagi qo‘shma qarorining 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan nizom asosida amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyati bo‘yicha tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan jami 1064 nafardan ortiq o‘quvchi onlayn ro‘yxatdan o‘tdi. Ro‘yxatdan o‘tish jarayoni maxsus @iqtidoransambli_bot platformasi orqali 2026-yil 15-aprelga qadar davom etdi.

Tanlovning tuman (shahar) bosqichi 2026-yil 21–24-aprel kunlari tasdiqlangan reja-grafik asosida yuqori saviyada tashkil etilmoqda. Hozirgi kunda mazkur bosqich jarayonlari faol davom etmoqda.

Tanlovda umumta’lim maktablarining 6–10-sinf o‘quvchilari jamoaviy tarzda ishtirok etmoqda. Har bir jamoa 5 nafardan 8 nafargacha o‘quvchidan iborat bo‘lib, ishtirokchilar o‘zbek milliy cholg‘u asboblari 6 daqiqa davomida ijro etish orqali o‘z mahoratlarini namoyon qiladilar. Chiqishlar 40 ballik tizim asosida hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

Tanlov quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

- ◆ Tuman (shahar) bosqichi — aprel oyi
- ◆ Viloyat bosqichi — may oyi
- ◆ Respublika bosqichi — iyun oyi

“Iqtidor” maktab ansambli tanlovi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy musiqa san’atiga mehr uyg‘otish, jamoaviy ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda yangi iste’dodlarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tanlov orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va kelgusida professional san’at yo‘nalishlariga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Barcha ishtirokchilarga omad tilaymiz!